

KONFESSIYALARARO TOTUVLIK – FUQAROLIK  
JAMIYATI TARAQQIYOTINING FALSAFIY  
ASOSLARI

Obidov Asliddin Shavkatovich, Alfraganus university “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

INTER-CONFESIONAL HARMONY –  
PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE  
DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY

Obidov Asliddin Shavkatovich, Acting Associate Professor of the Department of “Social Sciences” of the Alfraganus University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

МЕЖКОНФЕССИОНАЛЬНОЕ СОГЛАСИЕ –  
ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВАНИЯ РАЗВИТИЯ  
ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Обидов Аслиддин Шавкатович, и.о. доцента кафедры  
“Социальные науки” университета Альфраганус, доктор  
философии по философским наукам (PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada konfessiyalararo hamjihatlik fuqarolik jamiyati taraqqiyotining falsafiy va ijtimoiy asosi sifatida tahlil qilinadi. Tolerantlik, bag‘rikenglik va diniy muloqot g‘oyalari zamонавија jamiyatda fuqarolik ongini shakllantirishda muhim ahamiyat kashb etadi.

**Kalit so‘zlar:** Konfessiyalararo hamjihatlik, ijtimoiy integratsiya, ijtimoiy barqarorlik, pluralizm, ijtimoiy ong, tolerantlik, sekulyarizm, diniy muloqot, epistemologik, madaniyatlararo kommunikatsiya, aksiologiya.

**Abstract:** This article analyzes interfaith harmony as a philosophical and social foundation for the development of civil society. Ideas such as tolerance, mutual respect, and interreligious dialogue play a significant role in shaping civic consciousness in modern societies.

**Keywords:** interfaith harmony, social integration, social stability, pluralism, civic consciousness, tolerance, secularism, religious dialogue, epistemology, intercultural communication, axiology.

**Аннотация:** В статье анализируется межконфессиональное согласие как философская и социальная основа развития гражданского общества. Идеи толерантности, терпимости и религиозного диалога играют важную роль в формировании гражданского сознания в современном обществе.

**Ключевые слова:** Межконфессиональное согласие, социальная интеграция, социальная стабильность,pluralizm, общественное сознание, толерантность, секуляризм, религиозный диалог, эпистемологический, межкультурная коммуникация, аксиология.

**KIRISH.** Globallashuv jarayonlari, madaniy va dini xilma-xillik sharoitida ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash masalasi har qachongidan dolzarb tus olmoqda. Ayniqsa, bag‘rikenglik va madaniyatlararo muloqotga asoslangan ijtimoiy model, ayniqsa, ko‘p konfessiyali va ko‘p millatli davlatlar uchun o‘ziga xos barqarorlik negizi bo‘lib xizmat qilmoqda.

G‘arb falsafasida bu muammo ko‘p hollarda ijtimoiy murosaning kommunikativ asoslari, diniy

pluralizm va sekulyar jamiyat doirasida o‘rganilgan. Jumladan, Jurgen Habermas tomonidan ilgari surilgan “kommunikativ harakatlar” nazariyasida jamiyatdagi muloqotning ochiqligi va ratsional asosda qurilishi fuqarolik jamiyatining poydevori sifatida talqin qilinadi (Habermas, 1984). Ayniqsa, diniy muloqotga tayanuvchi ijtimoiy barqarorlik modeli demokratik qadriyatlar asosida fuqarolik o‘zini anglashining shakllanishiga xizmat qilishi



<https://orcid.org/0000-0002-9848-2364>  
e-mail:  
[asliddin.obidov@gmail.com](mailto:asliddin.obidov@gmail.com)

mumkinligi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, amerikalik sotsiolog Piter Berger o'zining "Sacred Canopy" (1967) asarida jamiyatda diniy an'analar nafaqat ma'naviy identitetni, balki ijtimoiy integratsiyaning vositachisi sifatida ham harakat qilishini isbotlagan. Uning fikricha, konfessiyalararo muloqot va diniy bag'rikenglik bu guumanitar barqarorlikni ta'minlovchi antropologik va aksiologik hodisadir. Sharq falsafasida esa diniy totuvlik va ijtimoiy uyg'unlik masalasi ko'proq axloqiy-ma'naviy me'yorlar asosida yoritilgan. Abu Nasr Forobiy o'zining "Al-Madina al-fadila" asarida fazilatli jamiyat timsolida turli e'tiqod egalari bir-biriga nisbatan hamkorlik va hamjihatlik asosida yashaydigan ideal ijtimoiy tuzumni tasvirlaydi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida hukmdor va jamiyat a'zolari o'rtasidagi muomala me'yorlari, murosaga asoslangan boshqaruvi konsepsiysi diniy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi qadriyat sifatida ilgari suriladi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA.** Zamnaviy falsafiy va sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, konfessiyalararo hamjihatlik nafaqat diniy barqarorlikni ta'minlovchi ijtimoiy mexanizm, balki fuqarolik jamiyatining epistemologik va aksiologik negizidir. Ushbu g'oya XIX–XX asrlardan boshlab rivojlangan g'arb falsafasida keng tahlil qilingan.

Yu.Habermasning kommunikativ harakatlar nazariyasi, asosan, ijtimoiy muloqot va muloqotdagi tushunishga asoslanadi. Uning fikriga ko'ra, jamiyatdagi ijtimoiy tartib va barqarorlik faqatgina barcha a'zolar orasida erkin, ochiq va hamkorlikka asoslangan muloqot orqali ta'minlanadi. Habermasning fikriga ko'ra, dinlararo muloqot nafaqat diniy e'tiqodlarni o'zaro qabul qilishni, balki umumi ijtimoiy qadriyatlar va jamiyatdagi tenglikni tan olishni ham anglatadi (Habermas, J. (1984) [1]. Bu o'zgarishlar, albatta, fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishiga olib keladi, chunki dinlararo muloqot faqat diniy erkinlikni ta'minlab qolmay, balki keng miqyosda ijtimoiy barqarorlikni ham saqlab turadi.

Sharq falsafasi tarixida ham konfessiyalararo totuvlik, ayniqsa, "ijtimoiy uyg'unlik" masalasi muhim mavqe egallagan. Abu Nasr Forobiy o'zining "Al-Madina al-fazila" asarida jamiyatdagi har xil e'tiqod egalari hamkorlikda yashashi mumkin bo'lgan ideal tuzumni falsafiy asosda tasvirlaydi

(Forobiy, A.N. (1993)[2]. Uning fikricha, fazilatli jamiyat tinchlik va muvozanat ustida quriladi va bu holat ham diniy, ham dunyoviy tafakkur egalari o'rtasidagi muloqot orqali ta'minlanadi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida davlat boshqaruvi va ijtimoiy tartiblar o'zaro murosaga asoslangan ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'lanadi (Yusuf Xos Hojib. (2001) [3]. Bu manbalarda konfessiyalararo munosabatlar bevosita "adolat", "maslahat", "tushunish" kabi etik kategoriylar orqali talqin qilinadi.

Yurtimizda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, diniy bag'rikenglikni qo'llab-quvvatlash va millatlararo totuvlikni mustahkamlash orqali fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga zamin yaratilmoqda. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun (1998, yangi tahriri 2021)da har bir shaxsning e'tiqod erkinligi kafolatlangani, diniy konfessiyalar teng huquqli deb e'tirof etilgani — bu yo'nalishdagi ijtimoiy-siyosiy irodani namoyon etadi [4].

**Ushbu tadqiqot metodologik jihatdan quyidagi yondashuvlarga tayanadi.** Tarixiy-falsafiy yondashuv – konfessiyalararo hamjihatlik g'oyalalarining tarixiy ildizlarini o'rganish va Forobiy, G'azzoliy, Xos Hojib singari mutafakkirlar merosida tahlil qilishga asoslanadi.

Komparativ metod – turli davr va makonlarda (Sharq va G'arb falsafasi) konfessiyalararo munosabatlarga bo'lgan yondashuvlarni taqqoslab, universal tamoyillarni aniqlash imkonini beradi. Sotsiologik-analitik yondashuv – zamnaviy ijtimoiy institutlar, fuqarolik tashabbuslari va diniy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni empirik tahlil qiladi.

Bundan tashqari, maqolada bashoratli ilmiy yondashuv asosida Global Peace Index, Pew Research Center, va USCIRF (U.S.Commission on International Religious Freedom) kabi manbalarning statistik tahlillaridan foydalаниlib, konfessiyalararo barqarorlikning ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'siri o'rganiladi (Global Peace Index (2023)[5].

**NATIJALAR.** Konfessiyalararo hamjihatlikni ta'minlash fuqarolik jamiyatining barqarorligini mustahkamlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Yurgen Habermasning "Kommunikativ harakatlar" nazariyasida jamiyatdagi muloqot va anglashuv jarayonlari orqali ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkinligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, diniy va

dunyoviy qarashlar o'rtasidagi muloqot fuqarolik ongingin shakllanishida hal qiluvchi o'rinn tutadi (Habermas, J. (1984) [6].

Bu nuqtayi nazar konfessiyalararo hamjihatlikni jamiyatning axloqiy muvozanatini saqllovchi omil sifatida talqin etishga imkon beradi. Ayniqsa, milliy ijtimoiy tizimlarda diniy ifodaning erkinligi bilan sekulyar boshqaruv tamoyillari o'rtasidagi muvozanat – ijtimoiy totuvlikning falsafiy negizidir. Bu yondashuv, ayniqsa, fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda diniy murosaning axloqiy ahamiyatini ko'rsatadi.

**MUHOKAMA.** Konfessiyalararo hamjihatlik masalasi zamonaviy global xavfsizlik, fuqarolik ongini shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi dolzARB masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu jarayonni falsafiy nuqtayi nazaridan baholashda Martha Nussbaum ham qo'llab-quvvatlab, bag'rikenglik va axloqiy empatiyani demokratik jamiyatning ajralmas elementi sifatida baholaydi (Nussbaum, M. 2011)[7]. Uningcha, diniy pluralizmida individual erkinlikni tan olish jamiyatda ijtimoiyadolat va o'zaro hurmat muhitini yaratadi. Aynan shunday muhitda fuqarolik jamiyatining faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan etika va huquqiy madaniyat shakllanadi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida axloqiy-ijtimoiy tartibning asosi sifatidaadolat, vijdon va iymon tamoyillariga tayanilgan. Bu esa hozirgi zamon jamiyatida diniy murosaning siyosiy madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi (Yusuf Xos Hojib, 2007) [8]. Shu ma'noda, O'zbekiston tajribasi ko'p konfessiyali jamiyatda milliy birdamlikni mustahkamlashning amaliy modeli sifatida xalqaro e'tirofga sazovor bo'lmoqda.

Bugungi kunda ushbu masala bo'yicha faol ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlar qatoriga Jonathan Fox, Brian Turner, Grace Davie kabi sotsiologlar kiradi. Ular dunyo miqyosida din va siyosat, din va jamiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalarni empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilmoqda (Fox, J. 2013)[9]. Ularning fikricha, diniy ko'pxillik demokratik tamoyillar asosida boshqarilsa, bu jamiyatning madaniy ko'lamini kengaytiradi va barqarorlikka xizmat qiladi. Konfessiyalararo hamjihatlikni falsafiy, huquqiy va ijtimoiy jihatdan chuqur tahlil qilish orqali aniqlanishicha, bu jarayon fuqarolik jamiyatining shakllanishi va mustahkamlanishida nafaqat zaruriy, balki strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

**XULOSA.** Konfessiyalararo hamjihatlikni ta'minlash fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida ko'rsatilgan ushbu tadqiqotda, diniy pluralizm va bag'rikenglik tushunchalarining zamonaviy jamiyatdagi o'rni va ahamiyati chuqur ilmiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, jamiyatda konfessiyalararo hamjihatlikni ta'minlash orqali, fuqarolik jamiyatining axloqiy va siyosiy barqarorligini mustahkamlash mumkin. Bu esa faqat diniy xususiyatlarga ega bo'lgan jamiyatlarda emas, balki dunyo miqyosida turli madaniy, diniy va etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va bag'rikenglikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ko'rsatilgan ilmiy fikrlar, amaliyotda keng qo'llanilishining muhimligini ta'kidlagan holda, diniy bag'rikenglik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish uchun zamonaviy jamiyatlar, ayniqsa Markaziy Osiyo davlatlari, o'z fuqarolik jamiyatlarini yanada erkin va adolatli qilish maqsadida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishlari zarurligini ta'kidlash mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Habermas, J. (1984). *The Theory of Communicative Action*, Vol. 1. Boston: Beacon Press.
2. Forobiy, Abu Nasr Fozil odamlar shahri. Abu Nasr Forobiy / Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas'ul muharrirlar M.Xayrullayev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2016. – 320-b.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T.: Cho'lpox. 2007.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2021). Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi Qonun.
5. Global Peace Index (2023), Pew Research Center (2022), USCIRF Religious Freedom Report (2023).
6. Habermas, J. (1984). *The Theory of Communicative Action*, Vol. 1. Boston: Beacon Press.
7. Nussbaum, M. (2011). *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. Harvard University Press.
8. Yusuf Xoss Hojib. Qutadg'u bilig. T.: Cho'lpox. 2007.
9. Fox, J. (2013). *An Introduction to Religion and Politics: Theory and Practice*. Routledge.